Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 811.512.133

ZAMONAVIY LINGVISTIKA VA GLOBAL KOMMUNIKATSIYA

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA TARIXIY MANBALARNI TADQIQ QILISH METODOLOGIYASI

Madina Ulug’bek qizi Tursunova*

Farg’ona davlat universiteti

✉ madinatursunova21@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘zbek tilshunosligida tarixiy manbalarni tadqiq qilish metodologiyasining shakllanishi va rivojlanishi, xususan, qiyosiy-tarixiy, tarixiy-grammatik hamda matnshunoslik (tekstologik) metodlarning ilmiy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, Mahmud Koshg‘ariy, Abdurauf Fitrat, Q. Sodiqov, G‘. Abdurahmonov, Sh. Shukurov, Q. Mahmudov va boshqa olimlarning tadqiqotlari asosida tarixiy manbalarni kompleks o‘rganishning metodologik tamoyillari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar

tarixiy manba, o‘zbek tilshunosligi, tadqiqot metodologiyasi, qiyosiy-tarixiy metod, tarixiy grammatika, matnshunoslik, tekstologiya, paleografiya, tarixiy morfologiya, yozma yodgorliklar.

DOI: 10.5281/zenodo.23277901

KIRISH

O‘zbek tilshunosligida tarixiy manbalarni tadqiq qilish uzoq an’anaga ega bo‘lib, bu jarayon o‘zbek adabiy tili tarixi, tarixiy grammatika va matnshunoslik fanlarining uzviy hamkorligida amalga oshiriladi. Tadqiqotchi qadimgi yozma yodgorlik tilini o‘rganishda, avvalo, manba tilining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini, shuningdek uning yozilish davri, hududi va paleografik belgilarini aniqlashi lozim[1]. Shu boisdan mazkur soha metodologiyasi bir qancha ilmiy metodlarning uyg‘unlashuvi asosida shakllanadi.

O‘zbek tilshunosligida tarixiy manbalarni tadqiq qilishning eng qadimiy va samarali usuli qiyosiy-tarixiy metod hisoblanadi. Bu metodning ildizlari Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asariga borib taqaladi: olim turkiy qabila tillarini bir-biriga qiyoslab, ularning fonetik va leksik farqlarini tizimli tarzda ko‘rsatib bergani uchun ko‘pgina tadqiqotchilar uni qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning asoschilaridan biri sifatida e’tirof etadilar[2]. Zamonaviy tilshunoslikda ham bu metod o‘zbek shevalari va yozma yodgorliklar materialini “Devonu lug‘atit turk”, “Qutadg‘u bilig” hamda Alisher Navoiy asarlari tiliga qiyoslab o‘rganishda faol qo‘llaniladi[3].

Ikkinchi muhim yo‘nalish – tarixiy grammatika metodologiyasi bo‘lib, u yozma manbalar asosida tilning fonetik, morfologik va sintaktik taraqqiyot bosqichlarini davrlar kesimida tiklashga xizmat qiladi. G‘.Abdurahmonov, Sh.Shukurov va Q.Mahmudovlarning “O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi” darsligida bu metodologiya qadimgi turk run bitiklaridan tortib eski o‘zbek yozma yodgorliklarigacha bo‘lgan manbalar

[1] Sodiqov Q. Matnshunoslik va manbashunoslik asoslari. – Toshkent: Sharqshunoslik instituti, 2017. – B. 3–4.

[2] Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘atit-turk (S.M.Mutallibov nashri). – Toshkent, 1960, 1961, 1963.

[3] O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi TDO‘TAU, 2022-yil 19-oktabr.

tahlili orqali izchil yoritilgan[4]. Shuningdek, E.Fozilovning “O‘zbek tilining tarixiy morfologiyasi” asari alohida davr manbalari negizida morfologik shakllarning taraqqiyotini tadqiq etishning namunaviy metodikasini taqdim etadi[5].

Uchinchi yo‘nalish – matnshunoslik (tekstologik) metodologiya bo‘lib, u qo‘lyozma manbalarning bir necha nusxalarini qiyoslash, ularning eng ishonchli variantini aniqlash va tanqidiy matn tayyorlash bilan bog‘liq. Q.Sodiqov ta’kidlaganidek, bunday ishni bajaruvchi tadqiqotchi manba tilining leksik-grammatik xususiyatlarini, imlo va uslub xususiyatlarini chuqur bilishi, shu bilan birga qo‘lyozmaning tashqi (paleografik) hamda ichki (lingvistik) belgilariga tayangan holda tanqidiy matn yaratishi zarur[6]. Bu yondashuv, xususan, fors va arab imlosidagi qo‘lyozmalarni bir necha nusxa asosida yig‘ma yoki tanqidiy matn shaklida nashrga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, o‘zbek tilshunosligi tarixida bu metodologiyaning shakllanishida milliy tilshunoslik maktabining o‘rni katta bo‘lgan. A.Nurmonov “O‘zbek tilshunosligi tarixi” asarida Abdurauf Fitratning o‘zbek tili grammatikasini xalq tilining tabiiy xususiyatlari asosida tavsiflashga qaratilgan ilmiy metodlarini o‘zbek tilshunosligi metodologiyasi rivojidagi muhim bosqich sifatida baholaydi[7]. Mahmud Koshg‘ariyning ilmiy merosini o‘rganishda esa H.Hasanovning monografik tadqiqoti alohida o‘rin tutadi[8].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilshunosligida tarixiy manbalarni tadqiq qilish metodologiyasi qiyosiy-tarixiy, tarixiy-grammatik va matnshunoslik (tekstologik) metodlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi asosida shakllangan kompleks tizimdir. Ushbu metodologiya, bir tomondan, Mahmud Koshg‘ariy va Fitrat kabi allomalarning ilmiy merosiga tayansa, ikkinchi tomondan, zamonaviy manbashunoslik va tekstologiya yutuqlari bilan boyitib borilmoqda, bu esa o‘zbek tili tarixini yanada teranroq va ishonchliroq tiklash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Sodiqov Q. Matnshunoslik va manbashunoslik asoslari. – Toshkent: Sharqshunoslik instituti, 2017. – B. 3–4.

[2] Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘atit-turk (S.M.Mutallibov nashri). – Toshkent, 1960, 1961, 1963.

[3] O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2022-yil 19-oktabr). – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi TDO‘TAU, 2022.

[4] Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2008.

[5] Fozilov E. O‘zbek tilining tarixiy morfologiyasi. – Toshkent, 1965.

[6] Sodiqov Q. Ko‘rsatilgan asar. – B. 3–4.

[7] Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent, 2002.

[8] Hasanov H. Mahmud Koshg‘ariy (monografiya). – Toshkent, 1973.

[9] Shcherbak A.M. Grammatika starouzbekskogo yazыka. – Moskva–Leningrad, 1962.

[10] Kononov A.N. Grammatika yazыka tyurkskix runicheskix pamyatnikov VII–IX vv. – Leningrad, 1980.

[4]Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi: Fonetika, morfologiya, sintaksis. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2008.

[5]Fozilov E. O‘zbek tilining tarixiy morfologiyasi. – Toshkent, 1965.

[6]Sodiqov Q. Ko‘rsatilgan asar. – B. 3–4.

[7]Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent, 2002.

[8]Hasanov H. Mahmud Koshg‘ariy (monografiya). – Toshkent, 1973.